

UOT. xung

T.X.XOLMIRZAYEV

# URDU TILI

O'quv qo'llanma  
(3-kurs uchun)

Toshkent -- 2009

809.11

X-72

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OILY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

T.X.XOLMIRZAYEV

# URDU TILI

O'quv qo'llanma  
(3-kurs uchun)

Mazkur o'uv qo'llanma urdu tilini asosiy sharq tili sifatida o'rganayotganlar uchun mo'ljallangan bo'lib, morfologiya masalalarini o'z ichiga oladi. 3-kurs 1-semestrda fe'ning kategorial va nokategorial shakllari asoslari o'qitiladi. Asosiy urg'u kauzativ fe'llar, fe'l nisbatlari va uning yasalish usullariga beriladi.

**Mas'ul muharrir:**

*Abdurahmonova M.H. «Janubiy Osiyo tillari» kafedrasida  
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

**Tuzuvchi:**

*Xolmirzayev T.X. filologiya fanlari doktori, dotsent*

**Taqrizchilar:**

**Obidov B.** Beruniy nomli sharqshunoslik ilmiy tadqiqot instituti  
katta ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi;

*Nurmatov S.S. «Janubiy Osiyo tillari» kafedrasida  
katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi*

Toshkent davlat sharqshunoslik institutining O'quv – uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. (Bayonnoma№1. 13.11.2009)

**KIRISH**

O'quv qo'llanmada yoritilgan mavzular sirasiga asosan harakatning nutq momentiga munosabatini ko'rsatish xususiyatiga ko'ra fe'ning zamon formalari, uning mayl, zamon va shaxs-son formalarida o'zgarishi, fe'ning kategorial va funksional formalari, harakat bilan sub'ekt orasidagi aloqaning voqelikka munosabatini ko'rsatuvchi mayl kategoriyasi va ularga xos ma'nolarning ifodalanishi kiradi.

Shuningdek, fe'ning infinit formalari – ravishdosh, sifatdosh va ularning murakkab shakllarining yasalishi masalalari o'rganiladi.

Til taraqqiyoti prosessida uning leksikasi, grammatik qurilishi va boshqa sohalarida bo'lgani kabi so'z yasalishi sohasida yuz bergan o'zgarishlar ham alohida ko'rib chiqiladi



**1-mavzu**  
**URDU TILINING LUG'AT TARKIBI**

**Darsning o'quv maqsadi:** tatsama, tadbha va fors va arab tillaridan kirgan so'zlar haqida tushuncha hosil qilish

**Reja:**

1. Tub hindiy so'zlari.
2. Fors, arab, yevropa tillari so'zlari.

**Tayanch iboralar:**

Tatsama, tadbxava, deshiya, videshi.

**Mavzu bayoni:**

Urdu tili lug'at tarkibi kelib chiqishi jihatidan 2 ta katta guruhga bo'inadi: 1. Tub hind so'zlari. 2. Chet tili so'zlari.

Birinchi guruh so'zlari o'z navbatida 3 ta guruhga bo'linadi:

A) Tadbxava - bu aslida sanskrit tilidan chiqqan so'zlaridir. Ular qadimiy davrdan to hozirgacha bo'lgan fonetik va semantik rivojlanishini o'tab kelganlar.

B) Tatsama - urdu tiliga sanskrit tilidan hech qanday o'zgarishsiz kirgan so'zlar.

C) Deshya - Hindistonning hind-oriy tillariga mansub boimagan (dravid, munda) tillaridan kirgan so'zlar. Bu kabi so'zlar kam. Sanskrit so'zlari urdu tili lug'atini asosiy qismini tashkil etadi.

Tatsama so'zlari yangi va eski so'zlarga bo'linadi.

Eski tatsama - bu sanskrit tili so'zlari bo'lib, eski yoki yangi ma'nolarda ishlatilishi mumkin.

Yangi tatsama - bular sanskrit lug'ati va so'z yasovchi qo'shimchalari asosida yasalgan so'zlar. Lekin bunday so'zlar hindi tilidan urduga tayyorligicha olinganlar. Ular urdu tilining asosiy lug'at qismining juda ham kam miqdorini tashkil qiladi.

Fors tili - so'zlari o'zlashtirilgan so'zlar ichida katta o'rinni egallaydi. Ular urdu tiliga ikki hil yo'l bilan:

1. mahalliy aholining ushbu til sohiblari - bilan bevosita aloqasi tufayli; 2. sa'nat, adabiyot, fan, din qo'shni maktablar orqali.

Masalan: *Aabadi* - aholi; *Zamin* - yer; *Namak* - tuz; *Do 'st* - do'st.

Turk tili- so'zlari so'zlashuv orqali o'zlashtirilgan ularning soni kam.

Masalan: *Keychi* - qaychi; *Chaku* - pichoq; *To'p* - pushka; *Kuli* - yuk tashuvchi.

Arab tili - so'zlari fors va turk tillar orqali kirgan so'zlar:

Masalan: *asar* - ta'sir, *ijazat* - ruxsat, *masjid* - machit.

Portugal va fransuz tillari so'zlari XVI-XVII asrlarda so'zlashuv natijasida urdu tiliga kirib kelgan:

Masalan: *Almari* - shkaf; *Girja* - cherkov (portugal); *Kartus* - patron; *Kupan* - kupon (fransuz).

Ingliz tili - so'zlari XVI asr boshlarida kirib kela boshlagan:

Masalan: *Afsar* - ofiser; *Teknoloji* - texnika; *Fekalti* - fakultet.

Rus tili lugati ingliz tili orqali kirgan bo'lib, kalka yoi bilan kirgan:

Masalan: *Aram ghar* — dam olish uyi; *Panch varshiy yojna* — besh yillik reja; *Sanskriti bhavan* - madaniyat saroyi va h.k.z.

Bunday yuzlab so'zlar hozirgi Hindiston urdusida ko'p uchraydi. Ularning urdu tili tog'ridan to'g'ri hindiydan oladi va bu jarayon Hindiston urdusining (Pokistonga nisbatan) farqlantiruvchi belgisiga aylanib bormoqda.

**Mustaqil ta'lim uchun savollar:**

1. Tatsama so'zlari qanday yasaladi?
2. Tadbxava so'zlari qanday yasaladi?
3. Videshi so'zlari deb qanday so'zlarga aytiladi?

**Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:**

1. Mavzuni ona tili materiallariga qiyoslab o'rganib chiqing.
2. Berilgan matn leksikasini mavzu yuzasidan tahlil qiling.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdurahmonova M.H. Urdu tili leksikologiyasi. -T., 2009.
2. Abdulhaq Qavaide-urdu. Dehli, 2004.
3. Javed Ismat. Nai qavaide urdu. Dehli, 1985.
4. Muhammadjonov R. Muhammadjonova V.A. Urdu tili darsligi. -T., 1992.
5. Dimshits Z.M. Grammatika yazika urdu. -M., 2001.

**Internet saytlari:**

1. www.urduzaban.com.
2. www.urdustan.com.



## 2-mavzu URDU TILIDA SO'Z YASASH

**Darsning o'quv maqsadi:** qo'shma so'z yasash usullari haqida ko'nikma hosil qilish

### Reja:

1. Turli so'z turkumlaridan qo'shma so'z yasash.
2. Teng bog'langan so'zlar.
3. Tobe (ergashtiruvchi) so'zlar.

### Tayanch iboralar:

Ot, sifat, sifatdosh, son, olmosh, fe'l, o'zak.

### Mavzu bayoni:

Otlardan so'z yasash usullari orasida eng ko'p so'z qo'shish usuli tarqalgan. Qo'shma otlar urdu tilida quyidagicha yasaladi:

1. Ot + ot:  
*khel-ku:d, xarido-farox* - savdo sotiq,  
*xurdo-nosh* - oziq-ovqat
2. Ot + sifat:  
*Ghursavar* - chavandoz,  
(*ghur* - *ghora* ot + *savar* - o'tirgan);  
*Munhkala* — uyat (*manhyuz* + *kala* qora).
3. Ot + sodda tugal sifatdosh:  
*Bhikhmanga* - gadoy (*bhikh* - sadaqa + *manga* so'rgan);  
*Patharphora* - tosh kesar - (*pathar*- tosh *phora* - sindirgan);
4. Sifat + ot: *xu:bsu:rat* - chiroyli;  
*badbu:* - sassiq;
5. Son + ot:  
*Do peher* - tush payti, (*do* - ikki + *peher* kunning 8-chi boiagi)  
*tikona* - uchburchak
6. Son + sifat (otdan yasalgan) dan:  
*Shishma:hi:* - yarim yillik ( *shish* - olti + *mahi* < - oy).
7. Olmosh + otdan:  
*xu:dkushi:* o'z joniga qasd qilish ).
8. Fe'l o'zaklarini qo'shish bilan:  
*Dekh-bha:l* - qarash, kuzatish (*dekhna* -*bhalna* - kuzatmoq,

qarab turmoq).

9. Sodda tugal sifatdoshlarni qo'shish bilan:  
*Kaha-suna* tortishuv, janjal (*kaha* - aytilgan + *suna* tinglangan).
10. Sifa:t – sifat  
*likha:-parhna:* - o'qigan, *sovodli,*  
*paka:-paka:ya:* - pishgan,yetilgan.  
Qo'shma so'zlar yasashda 2 xil usul uchraydi:  
a) bog'langan  
b) ergashgan

**Boglangan so'zlar** ikki otni qo'shish bilan yoki *o* unlisi yordamida yasaladi. Bunday so'zlar yangi umumiy tushunchani ifodalaydi.

Masalan: *a:bo-hava:* - ob-havo (*aab* - suv + *hava* - havo).  
*Sukh-cheyn* - tinchlik (*sukh* - baxt + *cheyn* - tinchlik).  
*Naokar* - *chakar* - xizmatkorlar (*nokar* -xizmatkor + *chakar* xizmatkor).

### Ergashgan so'zlar 2 ga bo'linadi:

Birinchi xil ergashgan so'zlarda uning komponentlari o'rtasida to'ldiruvchilik munosabati mavjud bo'ldi. Birinchi komponent ot, ikkinchi komponent - ot, sifat, fe'l, o'zagi, sodda tugal sifatdoshdan iborat boiadi:

*Mehmainsava:zi: jangba:z* - urush olovini yoquvchi;  
*Makhichus* -qurumsoq, xasis (*makhi* - pashsha + *chus* < *chusna* ~ so'rmoq).

### Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Boglangan otlar qanday yasaladi?
2. Ergashgan otlar qanday yasaladi?

### Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:

1. Mavzuni ona tili materiallariga qiyoslab o'rganib chiqing.
2. Berilgan matn leksikasini mavzu yuzasidan taxlil qiling

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonova M.H. Urdu tili leksikologiyasi. T., 2009
2. Abdulhaq Qavaide-urdu. Dehli, 2004
3. Javed Ismat. Nai qavaide urdu. Dehli, 1985
4. Muhammadjonov R. Muhammadjonova V.A. Urdu tili darsligi.T., 1992
5. Dimshits Z.M. Grammatika yazika urdu. M., 2001

### Internet saytlari:

1. www.urduzaban.com
2. www.urdustan.com

### 3-mavzu

#### Morfologik usulda so'z yasash

**Darsning o'quv maqsadi:** suffiks va affiks orqali so'z yasash usullarini tushuntirish

#### Reja:

1. So'z yasash yo'llari.
2. Morfologik usulda so'z yasash.

#### Tayanch iboralar:

Morfologik usul, morfologo-sintaktik usul, sintaktik usul, leksiko-sintaktik usul, leksiko-semantik usul.

#### Mavzu bayoni:

##### So'z yasashning morfologik usuli

Morfologik usul keng tarqalgan bo'lib, quyidagi turlarga bo'linadi:

##### 1. Suffiks qo'shish bilan:

a) so'z-o'zakka o'zgarishsiz qo'shish bilan: *ta:qat* - kuch, *ta:qatvar* - kuchli;

*samajhda:r* — aqlli, *intiha* — *intiha: pasand*

b) so'z-o'zakdagi unlilarni o'zgartirish bilan:

c) *Larka* - (bola) - *larakpan* -bolalik;

d) *di:va:napan* - devonalik;

e) *Khel*- o'yin, *khila:ri* - o'yinchi.

##### 2. Old qo'shimchalar qo'shish bilan:

*Ghar* - uy, *beghar* - uysiz;

*Jan* - bilish, *anja:n* - bilimsiz;

##### 3. Aralash: suffiks va prefiks qo'shish bilan:

*Sharm* - hayo - *besharm* - hayosizlik;

*Gheyrhathiya:rbandi*: - qurolsizlanish,

*amn* - tinchlik -*puramn* - tinchlik yo'li bilan;

*hamvaju:diyat* - tinch-totuv yashash

4. Ichki fleksiya - so'z o'zakda unlilar (yoki undoshlarning) o'zgarishi. Bu ko'proq o'timsiz fe'llardan yasalgan o'timli fe'llar kiradi:

*Bantna*: - bo'linmoq, *ba:ntna*: - bo'lmoq.

*Phirna*: - aylanmoq, *pherna* - aylantirmoq

*Bhigna* - ivimoq, *bhigona* - ivitmoq

*Tu:tna*: sinmoq — *to'rna*: - sindirmoq

5. Kalka usuli. Bunda chet tilidagi so'z birikmasini, urduga so'zma-so'z tarjima qilinadi. Hozirgi paytda bunday usulga ingliz tili asos bo'lmoqda.

#### Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Morfologik usul bilan so'zlar qanday yasaladi?
2. Ichki fleksiya nima?

#### Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:

1. Mavzuni ona tili materiallariga qiyoslab o'rganib chiqing.
2. Berilgan matn leksikasini mavzu yuzasidan tahlil qiling

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonova M.H. Urdu tili leksikologiyasi. T., 2009
2. Abdulhaq Qavaide-urdu. Dehli, 2004
3. Javed Ismat. Nai qavaide urdu. Dehli, 1985
4. Muhammadjonov R. Muhammadjonova V.A. Urdu tili darsligi.T., 1992
5. Dimshits Z.M. Grammatika yazika urdu. M., 2001



### Internet saytlari

1. www.urduzaban.com
2. www.urdustan.com

### 4-mavzu MORFOLOGIK-SINTAKTIK USUL

**Darsning o'quv maqsadi:** so'z qo'shish va so'z turkumlarining otlashuvi haqida ko'nikma hosil qilish

#### Reja:

1. So'z qo'shish xususiyatlari.
2. Ot, infmitiv va h.k.z. larning otlashuvi.
3. Adverbializatsiya.
4. Alliteratsiya
5. Konversiya.

#### Tayanch iboralar:

Adverbializatsiya, alliteratsiya, konversiya, otlashuv, infmitiv.

#### Mavzu bayoni:

1. So'z qo'shish - qo'shma so'zning komponentlari ma'lum bir grammatik bogiiqlikda bo'ladi. Ular o'rtasida to'ldiruvchi va aniqlovchi munosabatlari mavjud bo'ladi.

Masalan: *Bijli ghar* - elektrostansiya (*bijli* - elektr + *ghar* - uy); *Xansmukh* - quvnoq (*xans* - kulgi + *mukh* - yuz).

2. Sifat, infmitiv, sifatdosh va boshqa so'z birikmalarini otlashtirish bilan.

Masalan: *Dhani* - boy (sifat) - boy (ot);

*Aana* - kelmoq, kelish,

Ra:hchalta -yoiovchi (ra:h - yo'1 + *chalta* -ketayotgan)

3. Turli xil so'z turkumlarini vositali kelishik shakllariga aylantirish -advebializatsiya usuli bilan:

a) otlarni: *aage* - oldinda, ro'parada (*aaga* - old qism, old dan yasalgan);'

b) sifatlarni: *dhire* - sekin (*dhira* - sekin).

c) sonlarni: *pehle* - avval (*pehla* - birinchi) (s).

d) olmoshlarni: *veyse* - shunday shunaqa (ravish), (*veysa* - shunday, shunaqa (olmosh).

3. Alliteratsiya - juft so'zlarning birinchi tovushini yoki oxiri bo'gindagi tovushning o'rni o'zgartirish yo'li bilan yangi so'z yasaladi.

Masalan: *kha:na-pi:na:* - osh-ovqat (*khana* - ovqat); *aamna-samna* - uchrashuv (*samna* - old qism);

*daora* - *daori*: shoshilish (*dorna* - chopmoq);

*bichonbich* -qoq o'rtasida *ibich* - o'rta);

*cha:y* - *va:y*

5. Konversiya - ot va sifatdosh hech qanday qo'shimchasiz fe'l yasash:

*Sara:hna* - 1. Maqtov, 2. Maqtamoq

*Kha:na:* - 1. ovqat; 2 yemoq *Rona-* 1. Yig'i; 2. Yig'lamoq

#### Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Morfologik usul bilan so'zlar qanday yasaladi?
2. Ichki fleksiya nima?

#### Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:

1. Mavzuni ona tili materiallariga qiyoslab o'rganib chiqing.
2. Berilgan matn leksikasini mavzu yuzasidan tahlil qiling

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonova M.H. Urdu tili leksikologiyasi. T., 2009
2. Abdulhaq Qavaide-urdu. Dehli, 2004
3. Javed Ismat. Nai qavaide urdu. Dehli, 1985
4. Muhammadjonov R. Muhammadjonova V.A. Urdu tili darsligi.T., 1992
5. Dimshits Z.M. Grammatika yazika urdu. M., 2001



### Internet saytlari

1. www.urduzaban.com
2. www.urdustan.com

### 5-mavzu

## SO'Z YASASHNING SINTAKTIK USULI

**Darsning o'quv maqsadi:** So'z yasashning sintaktik usuli haqida talabalarda ko'nikma hosil qilish

### Reja:

1. Sinonimlar orqali so'z yasash.
2. Antonimlar orqali so'z yasash.

### Tayanch iboarlari:

o'zak, sinonim, antonim.

### Mavzu bayoni:

So'z yasashning bu usuli ya'ni ikkita so'zning teng huquqli bo'lishiga aytiladi:

lara:i -jhagra: - janjal,  
milna: julna: - uchrashish.

Bunday juft so'zlarda fonetik o'zgarish bo'lmaydi va bir biriga bog'liq bo'lmaydi, umuman boshqa leksik-grammatik so'z yasamaydi. Ular 2 xil usul bilan yasaladi:

1. Ma'no jihatdan yaqin yoki teng bo'lgan (sinonim) so'zlarni qo'shish bilan:  
*So'ch-vichar* - chuqur o'ylab ko'rish *so'ch* - o'ylab ko'rish + *vichar* - fikr, mulohaza),  
ma:n-ba:p - ota-ona
2. Qarama-qarshi ma'nodagi (antonim) so'zlarni qo'shish bilan:  
*Kamo-besh* - deyarli, taxminan;  
*Din-rat* - kechayu-kunduz (*din* - kun - *rat* - tun).  
*Sava:l-java:b;*  
*lena:-dena;*

*Ajkal* — hozirgi paytda (*aj* — bugun - *kal* — erta).

Bunday juft so'zlarning ma'nosi ularning tarkibiga kirgan so'z bilan kelib chiqadi albatta. Lekin ma'no kengroq bo'lib abstract yoki umumiyashtirilgan tushunchani ifodalaydi.

Masalan, *zindagi:ka: uta:r-charha:ni* (yoki *nashebo-fara:z* - hayot tashvishlari, deb tarjima qilinsa to'g'ri bo'ladi.

### Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Morfologik usul bilan so'zlar qanday yasaladi?
2. Ichki fleksiya nima?

### Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:

1. Mavzuni ona tili materiallariga qiyoslab o'rganib chiqing.
2. Berilgan matn leksikasini mavzu yuzasidan tahlil qiling

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonova M.H. Urdu tili leksikologiyasi. T., 2009
2. Abdulhaq Qavaide-urdu. Dehli, 2004
3. Javed Ismat. Nai qavaide urdu. Dehli, 1985
4. Muhammadjonov R. Muhammadjonova V.A. Urdu tili darsligi.T., 1992
5. Dimshits Z.M. Grammatika yazika urdu. M., 2001

### Internet saytlari

1. www.urduzaban.com
2. www.urdustan.com

### 6-mavzu

## LEKSIK-SEMANTIK VA LEKSIK-SINTAKTIK USUL

**Darsning o'quv maqsadi:** leksik-semantik va leksik-sintaktik usul haqida talabalarda ko'nikma hosil qilish

### Reja:

1. Leksik-sintaktik usul.
2. Leksik-semantik usul.

**Tayanch iboralar:**

Ravish, eskirgan so'zlar, ot, takrorlash, sifat, olmosh, fe'l.

**Mavzu bayoni:**

Leksik-semantik usul — bu turli so'z turkumlariga oid so'zlarni qo'shish bilan yasalgan leksik so'zlardir. Bu usul bilan odatda ravishlar yasaladi:

*Din ko* - kunduz kuni,  
*ek bar* - bir marotaba,  
*ek ek karke* - birma - bir.

Leksik-semantik usul - bu eskirgan so'zlarni yangi ma'noni ifodalashidir:

Masalan: *Javan* - yosh, yosh yigit - "askar" ma'nosida;

ta:qat (kuch) - kuchli davlat;

Yany bu usul bilan turli so'z turkumlaridan ravishlar yasaladi:

1. Ot va ularni takrorlash orqali:

*Subah* erta-ertalab (ot. r.);

*Jaldi* - tez-tezlik, tez;

*Roz kun* - ro'z ro'z.

1. Sifatlar orqali:

2. *Achchha* - yaxshi (s. r.);

3. *saf*- toza (s. r.).

4. Olmosh - sifatlar orqali:

5. *Eysa* (olmosh, ravish) - shunday, shunaqa.

6. Fe'llar (ravishdoshlar) yordamida:

7. *Milkar* - birgalikda;

8. *Janbujhkar* - ongli ravishda, ataylab

**Mustaqil ta'lim uchun savollar:**

1. Morfologik usul bilan so'zlar qanday yasaladi?

2. Ichki fleksiya nima?

**Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:**

1. Mavzuni ona tili materiallariga qiyoslab o'rganib chiqing.

2. Berilgan matn leksikasini mavzu yuzasidan tahlil qiling

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdurahmonova M.H. Urdu tili leksikologiyasi. T., 2009
2. Abdulhaq Qavaide-urdu. Dehli, 2004
3. Javed Ismat. Nai qavaide urdu. Dehli, 1985
4. Muhammadjonov R. Muhammadjonova V.A. Urdu tili darsligi.T., 1992
5. Dimshits Z.M. Grammatika yazika urdu. M., 2001

**Internet saytlari**

1. www.urduzaban.com
2. www.urdustan.com

**7-mavzu****SIFAT YASASH**

**Darsning o'quv maqsadi:** sifat yasash haqida talabalarda ko'nikma hosil qilish

**Reja:**

1. Morfologik usul bilan sifat yasash.
2. Morfologik-sintaktik usul bilan sifat yasash.

**Tayanch iboralar:**

Sifat, ot, sodda tugal sifatdosh, sodda notugal sifatdosh, son, fe'l.

**Mavzu bayoni:**

Urdu tilida morfologik usul bilan sifat yasash keng tarqalgan. *Jangli* - So'z qo'shish usuli (morfologo-sintaktik usul) ko'p qo'lanadi.

Qo'shma sifatlar quyidagicha yasaladi:

1. ot + otdan: *munh* - *chor* - tortinchoq, uyatchan (*munh* yuz + *chor* o'g'ri);

*munh zor* - mahmadona (*munh* - yuz, og'iz + *zor* - kuch).

2. ot + sifatdan: *munhband*- yopiq (*munh* - og'iz, teshik + *band*-yopiq).

3. ot + sodda notugal sifatdoshdan: *dudhpi:ta* - emizikli (*dudh* - sut + *pi:ta* - ichuvchi).



4. ot + sodda tugal sifatdoshdan:  
*Kamartu:ta*: - bukir (*kamar* - bel + *tu:tna* -sinmoq).
5. ot + fe'l o'zagidan: *kamartor* - qiyin, kuchli (*kamar* - bel + *tor* < *torna* - sindirmoq).
6. sifat + otdan: *kamumr* - kichik yoshdagi (*kam* - kam + *umr* - yosh).
7. sifat + sifat: *saf-suthra* ~ top-toza (*saf*- toza + *suthra* - toza).
8. son + ot: *tipahiya* - uch g'ildirakli (*tin* - uch + *pahiya* - g'ildirak).
9. son + sifat (otdan yasalgan): *doarhi* - ikki ma'noli (*do* - ikki + *arhi* < *arth*- ma'no).
10. fe'l o'zagi + ot: *hansmukh* — quvnoq (*xans* < *xansna* — kulmoq + *mukh* —yuz).
- Bu usulda tub hind suffikslaridan tashqari fors elementlaridan ham keng foydalaniladi:  
 angez, ba:z, doz, parast, ya:fta, pazi:r, shuda va h.z.

#### Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Morfologik usul bilan so'zlar qanday yasaladi?
2. Ichki fleksiya nima?

#### Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:

3. Mavzuni ona tili materiallariga qiyoslab o'rganib chiqing.
4. Berilgan matn leksikasini mavzu yuzasidan tahlil qiling

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonova M.H. Urdu tili leksikologiyasi. T., 2009
2. Abdulhaq Qavaide-urdu. Dehli, 2004
3. Javed Ismat. Nai qavaide urdu. Dehli, 1985
4. Muhammadjonov R. Muhammadjonova V.A. Urdu tili darsligi.T., 1992
5. Dimshits Z.M. Grammatika yazika urdu. M., 2001

#### Internet saytlari

1. www.urduzaban.com
2. www.urdustan.com

## 8-mavzu SHAXS NOMINI YASOVCHI SUFFIKSLAR

**Darsning o'quv maqsadi:** shaxs nomini yasovchi suffikslar haqida talabalarda ko'nikma hosil qilish

#### Reja:

1. Muzakkar jinsdagi shaxslarning nomlari.
2. Muannas jinsdagi shaxslarning nomlari.

#### Tayanch iboralar:

Sifat, ot, sodda tugal sifatdosh, sodda notugal sifatdosh, son, fe'l.

#### Mavzu bayoni:

##### 1. Shaxslarning nomini yasovchi suffikslar 2 ga bo'linadi:

a. muj. roddagi shaxslarning nomlari.

jens. roddagi shaxslarning nomlari.

Muj. roddagi shaxslarning nomlari quyidagi suffikslar bilan yasaladi: *ak, akkar, aak, aaka, aaki, iya, i, uaa(va), u, era, aiya, aai, kar, gar, gat, chi, dar, ban, vala, xar.*

So'z suffikslar: *kari, khor, gya, pati, parast, baj, vasi, vid, shaax, vetta* va h.k.z.

Jens. roddagi shaxslarning nomlari quyidagicha yasaladi: *aa, aain, aaini, ika, in, iya, i, ni, eli, mail.*

2. Hayvonlarning nomini yasovchi suffikslar: m. roddagi: *aa - bhera* j. roddagi: *in, iya, i, ni - badhin, kutiya.*

3. Predmetlarning nomini yasovchi suffikslar: *an, aa, u, na, ni, aora, yal, dan, dani, vai, vari, agar, malya, shala, khana, gah, istan, stan, abad.*

4. Mavhum tushunchalarni yasovchi suffikslar: *an, aan, at, ti, aai, aao, aavt, aaxt, auti, ni, aai, aayt, la, na, pan.*

#### Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Muj. roddagi otlar qanday suffikslar yordamida yasaladi?
2. Jens. roddagi otlar qanday suffikslar yordamida yasaladi?
3. Mavhum tushunchalarni ifodalovchi so'zlar qanday suffikslar yordamida yasaladi?



4. Predmetlar nomlarini bildiruvchi so'zlar qanday suffikslar yordamidan yasaladi?

**Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:**

1. Mavzuni ona tili materiallariga qiyoslab o'rganib chiqing.
2. Berilgan matn leksikasini mavzu yuzasidan taxlil qiling

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdurahmonova M.H. Urdu tili leksikologiyasi. T., 2009
2. Abdulhaq Qavaide-urdu. Dehli, 2004
3. Javed Ismat. Nai qavaide urdu. Dehli, 1985
4. Muhammadjonov R. Muhammadjonova V.A. Urdu tili darsligi. T., 1992
5. Dimshits Z.M. Grammatika yazika urdu. M., 2001

**Internet saytlari**

1. www.urduzaban.com
2. www.urdustan.com

**9-mavzu**

**SIFAT YASOVCHI SUFFIKSLAR**

**Darsning o'quv maqsadi:** sifat yasovchi suffikslar haqida talabalarda ko'nikma hosil qilish

**Reja:**

1. Sifat yasovchi suffikslar.
2. Sifat yasovchi prefikslar.

**Tayanch iboralar:**

Suffiks, prefiks, sifat, so'z-suffiks.

**Mavzu bayoni:**

Sifat yasovchi suffikslarga qo'yidagilar kiradi: *aa, aau, aalu, u, ik, iya, i, iya, il, iila, ail, la, mota, dar, nar, may, man, van, shaali, var, vaar, vala, sar.*

So'z suffikslar: *aatmak, kar, karak, kari, gat, janak, dayak, dayi,*

*prad, parast, pasand, purn, band, baz, mar, viradhi, shil, suchak.*

Sifat yasovchi prefikslar quyidagilar: *a, an, ati, anu, ap, abhi, av, ku, dur, dush, duh, na, ni, nir, nish, nil, pra, be, la, sa, su.*

So'z suffikslar: *antar, antyu, ardh, adh, geyr, nana, yatha, sah, sarv.*

**Mustaqil ta'lim uchun savollar:**

1. Muj. roddagi otlar qanday suffikslar yordamida yasaladi?
2. Jens. roddagi otlar qanday suffikslar yordamida yasaladi?
3. Mavhum tushunchalarni ifodalovchi so'zlar qanday suffikslar yordamida yasaladi?
4. Predmetlar nomlarini bildiruvchi so'zlar qanday suffikslar yordamida yasaladi?

**Amaliy mashg'ulot uchun savol va topshiriqlar:**

1. Mavzuni ona tili materiallariga qiyoslab o'rganib chiqing.
2. Berilgan matn leksikasini mavzu yuzasidan taxlil qiling

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdurahmonova M.H. Urdu tili leksikologiyasi. T., 2009
2. Abdulhaq Qavaide-urdu. Dehli, 2004
3. Javed Ismat. Nai qavaide urdu. Dehli, 1985
4. Muhammadjonov R. Muhammadjonova V.A. Urdu tili darsligi. T., 1992
5. Dimshits Z.M. Grammatika yazika urdu. M., 2001

**Internet saytlari**

1. www.urduzaban.com
2. www.urdustan.com

**10-mavzu**

**Urduda forscha va arabcha ko'plik sonining yasalishi**

**Darsning o'quv maqsadi:** Urduda forscha va arabcha ko'plik sonining yasalishi haqida talabalarda ko'nikma hosil qilish

### Reja:

1. Fors tilidagi ko'plik sonining urdudagi o'rni
2. Urduda arab ko'plik sinining turlari va ularning ahamiyati
3. Ko'plik sondagi so'zlarni urdu grammatikasida moslanishi
4. Yangi so'zlar yasashida ulardan foydalanishi

**Tayanch iboralar:** ko'plik son tushunchasi, forsiy tili, arab tili, ikkilik soni, tog'ri ko'plik, siniq ko'plik

### Mavzu bayoni :

Fors, arab tillarining urduga ta'siri va uning rishojlanishiga qo'shgan hissasi juda katta bo'lgan. Asosan, bu jarayon urduning so'z qatlamida yorqin namoyon bo'ladi.

1. Fors tilidan kirgan ko'plik soni urduda ikkita suffikslar yordamida hosil qilinadi. Suffiks *a:n* (va uning varianti *ga:n*) jonzotlarni anglatuvchi otlarning ketiga qo'shiladi:

*Mehma:n - mehma:na:n* (mehmonlar),

*sha:gird- sha:girda:n* (shogirdlar);

*axba:rfarasha:n* (gazeta sotuvchilar),

*ada:ka:ra:n* (artistlar).

*o'hdedair* (mansabdor) arab so'ziga fors qo'shimcha *da:r* bilan yasalgan. Undan *mansabdorlar* so'zi tuzilgan *ohdeda:ra:n*.

Uning *ga:n* varianti *ha:e havva:z* bilan tugaydigan so'zlarga qo'shiladi:

*Ba:shinda* - (aholi) *ba:shindaga:n* (yashovchilar);

*seylaibzada -seyla:bzadaga:n* (suv toshqinidan zarar ko'rganlar),  
*halaikshuda -hala:k - shudaga:n* (haloq bo'lganlar)

Agarda birlikda so'z oxirida cho'ziq *a:* bo'lsa, unda bu suffiks *ya:n* ga aylanadi.

*da:na:* (dono) - *da:na:ya:n* (aqilliy kishilar),

*gada:* - *gadaya:n* (gadoylar).

Lekin bunday so'zlar juda kam uchraydi.

Suffiks *ha:* jonsiz narsalarni anglatadigan otlarga qo'shiladi va bunday so'zlarning soni nihoyatda oz:

*barasha:-baras* (ko'p yillar, ko'p yillardan beri);

*haza:rha:* (minglab).

Bu qo'shimcha hind so'zi *kror* (on million) bilan ham tez-tez

uchrab turadi:

*Is a:fat se krorha: ava:m muta:sir hue* - Bu ofatdan millionlab odamlar zarar ko'rishdi.

*A:n* suffiksli so'zlar mustaqil ham uchrab turadi, izofali tuzilmalarda ham keng ishlatiladi:

*mehma:na:ne - gira:mi:* - hurmatli mehmonlar,

*aha:liya:ne -hind* Hindiston fuqarolari.

### 2. Arab ko'plik soni

Bu tilning urduga ta'siri asosan bevosita bo'lgan. Arab so'zlari va ba'zi unsurlari urduga fors tili orqali kirib kelgan. Shu qatori arab ko'plik soni shakllari ham forsiyda keng ishlatiladigan arab so'zlari bilan urduda ishlatilgan.

Arab tilida son kategoriyasi juda keng rivojlangan. Uning yasash qoidalari ikki guruhga bo'linadi: to'g'ri ko'plik va siniq ko'plik. Bular tayyorligicha urduda qabul qilingan.

A) **To'g'ri ko'plik** ning asosiy qoidalari quidagicha

*I:n* suffiksi arab so'zlarning birlik shakliga qo'shiladi. Bunday so'zlar insonga, kasb-hunar egalariga, mutaxassislariga tegishli bo'ladi:

*muarrix:i:n* -tarixchilar;

*musannifi:n-* adiblar; *qava:ni:n* — qonunlar,

*mubassirim* — sharhlovchilar.

*A:t* qo'shimchali so'zlar urduda muannasda ishlatiladi. Arab tilida ular oxirida qisqa *at* ga tugaydigan so'zlar *a:tga* o'zgarishi, oxirida undosh harfi, yoki *ha:e - havvaz* kelgan so'zlariga *a:t* qoshilishi bilan tuziladi –

*Ha:lat - ha:la:t* (vaziyatlar);

*xidmat - xidma:t* (xizmatlar);

*i:ja:d - i:ja:da:t* (kashfiyotlar);

*zevar-zevra:t* (bezaklar);

*xaya:l-xaya:la:t* (fikrlar);

*muta:liba-muta:liba:t* (talablar),

*vagea-va:qea:t* (hodisalar)

Bu qoshimchani varianti *ja:t* ba'zan oxirida qisqa *a li* so'zlarga qo'shiladi. Ularning soni juda sanoqli:

*su:ba-su:baja:t* (provintsuyalar),

*meva - mevaja:t* (mevalar),

*mehkamaja:t* (idoralar):



U kam hollarda noarab so'zlari bilan ham ishlatiladi: *begam-begama:t* (xonimlar),

*deha:t*(qishloq);*farmu:da:t* (buyruqlar).

B) "Siniq " ko'plik. Bunday so'z yasashida so'zning shakli arab porodalariga ko'ra o'zgarib ketadi.

G) Zografning ta'kidlashicha, urduda uchraydigan bunday so'zlar 11 uslubda yasali uchray turadi. Shulardan urduda eng keng uchraydiganlar aytib o'tiladi. (Bu mavzu "Lexikologiya" Maxsus kursda kengroq yoritiladi).

Misollar: *ba:b - abva:b* (boblar),

*qaom - aqvaim* (millatlar);

*amr-umu:r* (ishlar),

*Hadd-hudu:d* (chegaralar),

*rukn- arkain* (a'zolar);

*sha:ir-shua:ra* (shoirilar).

*Afila: fa 'a:il* qoidasidagi so'zlar urduda nisbatan kam ishlatiladi.

*Dava: -adviya:* (dorilar),

*tabi:b - attiba:* (tabiblar)

*fa:yda -fava:id* (foydalar).

3. Ko'plik sondagi va urdu tili grammatikasi.

Shunday so'zlar urduda ba'zan birlik ma'nosida ham ishlatiladi.

Bunday holatlar gapdan ma'lum bo'ladi.

*Deha:t* (qishloq),

*tava;if*(raqqosa),

*ehva:l* (vaziyat),

vaholanki bular ko'plik shaklida ishlatilgan. Bular gapda vositali kelishik oldidan ishlatilsa (ham birlikda, ham ko'plikda) ularning shaklida o'zgarish bo'lmaydi:

*kutu:b- men* kitoblarda,

*haqa:iq ko-* haqiqatlarni.

Lekin ba'zan, urduda vositali ko'plikda *masaiilon ko* (masalalarni), *umara:on ne* (boylar) kabi misollar uchratish mumkin. Lekin bu xato hisoblanadi.

2. Arab-fors ko'plik qoidalarining yangi so'zlar yasashida mahsuldorligi deyarli kuzatilmaydi. Bunda eng mahsuldor a:n qo'shimchasidir. U ingliz so'zlari bilan ko'p uchray turadi:

*membra:n* (a'zolar),

*lidara:n* (rahbarlar),

*votara:n* (ovoz beruvchilar) va h.z.)

Boshqa turlarda faqat bir muncha misollar uchrashishi mumkin. Shulardan ba'zilari yuqorida berilgan edi. Yana bir misol. *Hind* (hindistonli) so'zidan *hunu:d* (hindistonliklar) yasalgan. Lekin bunday so'zlar deyarli yo'q.

#### Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Arab va fors ko'pligi urduda qanday qo'llaniladi?
2. Shu tarzda yasalgan so'zlar kelib chiqishi jihatidan qaysi tillarga mansub ?

#### Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar

1. Mavzuni yaxshi o'zlashtiring.
2. Lug'atlardan tegishli so'zlarni ko'chirib oling
3. Turli manbalardan arab-fors ko'plikka gaplar topib ularni tahlil qilib chiqing.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonova M.H. Urdu tili leksikologiyasi. T., 2009
2. Abdulhaq Qavaide-urdu. Dehli, 2004
3. Javed Ismat. Nai qavaide urdu. Dehli, 1985
4. Muhammadjonov R. Muhammadjonova V.A. Urdu tili darsligi.T., 1992
5. Dimshits Z.M. Grammatika yazika urdu. M., 2001

#### Internet saytlari

1. www.urduzaban.com
2. www.urdustan.com



## 11-mavzu FORSCHA IZOFA

**Darsning o'quv maqsadi:** forscha izofa haqida talabalarda ko'nikma hosil qilish

### Reja:

1. Izofa konstruksiyasining xususiyati.
2. Uning urduda ifodalanishi va turlari.
3. Bunda ro'y berayotgan jarayon.
4. Hindi va ingliz so'zlari bilan uni ishlatilishi.

### Tayanch iboralar:

Izofa tushunchasi, gapda anoqlovchi - aniqlanmish munosabati, sifat, ot, yuqori uslub.

### Mavzu bayoni:

1. Fors izofasining xususiyati shundan iboratki, unda aniqlovchi -aniqlanmishning kelishi, urdu grammatikasidan farq qiladi. Urduning attributiv birikmalari aniqlovchi - aniqlanmish tarkibida kelsa {safari ke daora:n - safar paytida} urdu: adab (urdu adabiyoti), bu konstruksiyada tarkib aksincha bo'ladi (adabe-urdu:)

Urdu tilining shakillanish davrida (18-19 asrlari) bu konstruksiya fors tilidan kirgan o'zlashmalar ichidagina mavjud bo'lgan. Keyinchalik, fors tilining urduga ta'siri tobora kuchayishi bilan bu tuzilmaning mavqei ham osha bordi va urduda, forsiyada mavjud bo'lmagan, shu tarzda yangi birikmalar paydo bo'la boshladi. Agarda avval bunday konstruksiya faqat fors, hamda arab so'zlari bilan yasalgan bo'lsa, hozirgi paytda uning mahsuldorligi hindi va ingliz so'zlarini ham o'z ichiga oladi.

2. Konstruksiyaning formal belgisi - birikmada aniqlanmishdan keyin e unli tovush talaffuz qilinadi. Yozuvda zer chiziqchasi yoki hamza belgisi bilan ifodalanadi.

Izofa birikmalarini ikki guruhga bo'lish mumkin.

Birinchisi-nisbatan erkin sintaktik birikmalariga kiradi. Undagi so'z tarkibi o'zgartirilsa birikmaning ma'nosi o'sha-o'sha qoladi. Masalan, *ozodlik kurashi -jange-a:za:di:* ning o'rniga *a:za:di: ki: jang*

bemalol ishlatilsa bo'ladi. Lekin *sargarme-amalda* (faol) bunday o'rin almashuvi (*amal ka: sargarm*) mumkin emas. Demak, bu yaxlit bir tushuncha sifatida ishlatiladi.

3. Hozir izofaning tuzulishida quidagi o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Agarda birikma ikkita yoki uchta izofali zanjirdan iborat bo'lsa, bittasida uning belgisi tushuriladi. *Anjumane-taraqqi:e - urdu* birikmada bittasi talaffuz etilmaydi {*anjuman taraqqie — urdu:*}

Ba'zan, bitta izofali birikmalar hozir eskirganlardan joy olmoqda. Oldingi *varaqe-sar, adabe-urdu:ning* o'rniga - *sarvaraqq urdu: adab* ko'proq ishlatilmoqda.

Etimologik jihatdan bunday birikmalarda turli tillardagi o'zlashmalar ishtirok etadilar (ham aniqlovchi, ham aniqlanmish sifatida).

*Mehsu:le-chungi:* -boj mahsuli (*arab + hindi*);  
*ara:ki:ne-la:ybreri:* - kutubxona xodimlari (*arab + ingliz*).

Hozirgi paytda shu konstruksiyadan yangi atamalar yasashda keng foydalanilmoqda. Ularda ham ba'zan izofa belgisi e talaffuz etilmaydi.

*Membar Parlament* (parlament a'zosida bu mavjud bo'lmasa; *membaraine -pairliment -parlament a 'zolarida* bu tushib qolmaydi.

Yana bir kuzatilayotgan jarayon, bu Hindiston va Pokiston urdusida bu konstruksiyani bir xil ishlatilmasligidir. Pokistonda, Hindiston urdusiga nisbatan u ko'oroq va keng miqdorda qo'llanib kelmoqda; yangi atamalar tuzilishida ham, erkin sintaktik birikmalarida ham.

### Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Fors izofa konstruksiyasining xususiyati nimadan iborat?
2. Bu tuzilmada so'zning etimologiyasi ro'l o'ynaydimi?
3. Izofa konstruksiyasida hozir biror o'zgarish ro'y beryaptimi?

### Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. Ro'znoma yoki boshqa manbalardan izofa misollarini yozib oling.
2. Ularni tarjima va tahlil qilib chiqing.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonova M.H. Urdu tili leksikologiyasi. T., 2009



2. Abdulhaq Qavaide-urdu. Dehli, 2004
3. Javed Ismat. Nai qavaide urdu. Dehli, 1985
4. Muhammadjonov R. Muhammadjonova V.A. Urdu tili darsligi. T., 1992
5. Dimshits Z.M. Grammatika yazika urdu. M., 2001

#### Internet saytlari:

1. www.urduzaban.com
2. www.urdustan.com

### 12-mavzu

## RAVISHDOSH VA UNING TURLARI

**Darsning o'quv maqsadi:** ravishdosh va uning turlari haqida talabalarda ko'nikma hosil qilish

#### Reja:

1. Ravishdosh va uning turlari
2. Sodda notugal ravishdosh
3. Sodda notugal ravishdoshning gapdagi vazifasi

**Tayanch iboralar:** Sodda notugal sifatdosh, murakkab notugal sifatdosh, qo'shimcha hol

#### Mavzu bayoni:

Ravishdoshning fe'l o'zagi *kar, ke, karke* qo'shimchalari yordami bilan yasalgan shakllari bilan oldin tanishilgan edik.

*Us ne uthkar kaha:* - U turib dedi.

Bundan tashqari ravishdoshning yana to'rtta shakli mavjud.

1. Sodda notugal ravishdosh
2. Qo'shma notugal ravishdosh
3. Sodda tugal ravishdosh
4. Qo'shma tugal ravishdosh

Sodda notugal ravishdosh sodda notugal sifatdoshning Aa sini E ga o'zgarishi bilan yasaladi.

Masalan: *a:ta:* - kelayotgan - *a:te* - kelayotib,

*bolta:* - gapirayotgan - *bolte* - gapirayotib.

Sodda notugal ravishdosh o'zgarmaydi va gap bo'laklari bilan moslashmaydi. Sodda notugal ravishdosh va fe'l kesim bir xil yoki har xil ish-harakat bajaruvchisiga (sub'ektiga) ega boiadi. Sodda notugal ravishdosh 4 xil vazifada keladi:

1. predikativ
2. yarim predikativ
3. predikativ hol
4. hol

Sodda notugal ravishdosh predikativ vazifada kelagnida asosiy fe'l bilan birga qo'shma kesim hosil qiladi. Ravishdosh sub'ekti va asosiy fe'l sub'ekti bitta bo'ladi.

*Ma:n apne bete ko jaga:te darti: thi:*

Ona o'g'lini uyg'otishdan qo'rqar edi.

*Vo ye kehte nehi:n thakti: thi:*

U bu haqida gapirishdan charchamas edi.

Ba'zan ravishdosh takrorlangan holda ham ishlatiladi.

*Main intizair karte karte thak gaya:*

Men kuta-kuta charchab ketdim.

Sodda notugal ravishdosh yarim predikativ vazifada kelganda qo'shimcha ish-harakatni ifodalaydi. Bunday hollatda: *sharm a:na:*, *dar lagna:* kabi fe'llar qo'llaniladi. Misollar:

*Mujhe vaha:nja:te dar lagta he*

Men u yerga borishdan qo'rqaman.

*Tumkoye kehte sharm nehin a:ti:?*

Sen buni gapirishdan uyalmaysanmi?

Sodda notugal ravishdosh predikativ hol vazifasida kelganida qo'shimcha kesim va hol ma'nolarini mujassamlashtiradi. U qo'shimcha xabar, ish-harakatni anglatgan holda hol kabi ish-harakatni ifodalaydi.

*Use ek sher a:te dikha:i: diya:*

U bir sher kelayotganini ko'rdi.

*Kisi: ne chitthi: girte nahi:n dekhi:*

Hech kim xat tushib ketganini ko'rmadi.

Sodda notugal ravishdosh hol vazifasida kelganda ba'zan ravishdosh egasi gap egasi bilan mos tushadi, ba'zan mos tushmaydi.

*Ra:ste chalte vo kisi: ko dekhkar rukja:ta tha:*

Yo'lda ketayotib biror ayolni ko'rsa, u to'xtab qolardi.

Main ne kitni: ra:ten ja:gte bita:i: thi:n  
Men qancha tunlarni bedor o'tkazdim.

#### Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Ma'ruzani o'qib konspekt qiling.
2. Har bir qoidaga misollar keltirib tushuntiring.

#### Amaliy mashg'ulot bo'yicha topshiriqlar:

1. Matndagi mavzuga oid misollarni ko'chirib oling va tahlil qiling.
2. Mashqlarni og'zaki va yozma bajaring.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonova M.H. Urdu tili leksikologiyasi. T., 2009
2. Abdulhaq Qavaide-urdu. Dehli, 2004
3. Javed Ismat. Nai qavaide urdu. Dehli, 1985
4. Muhammadjonov R. Muhammadjonova V.A. Urdu tili darsligi. T., 1992
5. Dimshits Z.M. Grammatika yazika urdu. M., 2001

#### Internet saytlari:
